



UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA TALABALARNI KASBGA QIZIQTIRISHDA HADISLARDAN FOYDALANANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Qahharova M.L.

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: hadis, Abduhakim At-Termiziy, "Kasb-hunar haqida risola", shaxs, kasbiy tarbiya, kasbga qiziqtirish, burch, halollik.

Ключевые слова: хадис, Абдухаким ат-Термизи, "Трактат о профессии", личность, профессиональное воспитание, интерес к профессии, долг, честность.

Key words: hadith, Abduhakim at-Termizi, "Treatise on the profession", personality, professional education, interest in the profession, duty, honesty.

Har bir davrda bo'lgani singari, bugungi kunimizda ham kasbga bo'lgan qiziqish, e'tibor uni to'g'ri tanlay bilish yoshlarning oldida turgan vazifasi, burchi, maqsadi va ikki dunyosida saodat topishi bilan bog'liq ma'suliyatidir. Inson tug'ilibdiki, halol rizq topishga kasb-u kori orqali mehnat qilib el oldida o'z o'rniga ega bo'lishga harakat qiladi.

Albatta, Mustaqil O'zbekistonimizda hukumatimizning yoshlarda kasbga qiziqtirishda, kasb-hunarli bo'lishda e'tibor har bir yoshning kasbga ega bo'lishi uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tadbirkorlikka oid bilimlarni beradigan markazlar faoliyatini rivojlantirish bo'sh o'rinlarini ko'paytirish va yoshlar bandligini ta'minlash davlatimizning bosh g'oyasini tashkil qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning rahbarligida bugun mamlakatimizda olib borayotgan sa'y-harakatlar natijasida kasbga qiziqtirish har bir bitiruvchini ish bilan ta'minlash uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tadbirkorlikka oid bilimlarni beradigan markazlar faoliyatini rivojlantirish bo'sh o'rinlarini ko'paytirish va yoshlar bandligini ta'minlash davlatimizning bosh g'oyasini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘qitish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta‘limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlari va shunga o‘xshash normativ hujjatlarning qabul qilinishi bunga misol bo‘la oladi.

Yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatida kasb-hunarga tayyorlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlar Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi, vazirliklar va idoralarning ta‘lim muassasasi uchun ajratilgan mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari mablag‘lari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanishini o‘zi ham yoshlarga va aynan ularning kasb bilan ta‘minlashga bo‘lgan e‘tiborning yuksak namunasi bo‘la oladi albatta.

Konstitutsiyamizning 37-moddasida har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqiga ega ekanligi, sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanishi alohida belgilanganligining o‘zi ham nafaqat madaniy, iqtisodiy balki qonun yo‘li bilan ham belgilanib qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yurtboshimiz rahnamoligida yoshlarni kasb-hunarli qilish borasida qator amaliy ishlar olib borilayapti. Bu fikrlarga yaqqol namuna sifatida kasb-hunar maktablarining ochilishi ularda yoshlarning kasbga o‘rgatish uchun sarf harajatlarning barchasi davlat byudjetidan qoplanib berilishining kasb-hunar maktablariga zarur bo‘lgan barcha texnikaviy baza va zarur ashyolar bilan ta‘minlangan. Bitiruvchi sinflar ta‘limdan ajralmagan holda kasb - hunar maktablarida qiziqishlariga qarab kasb-hunarga o‘qitilayotganini o‘zi ham yurtimizda yoshlarning kasb-hunarli bo‘lishi uchun barcha sharoitlar yaratilganligining namunasi bo‘la oladi albatta.

Kasb so‘zining asli ma‘nosiga e‘tibor berar ekanmiz aslida kasb so‘zi arab tilida “qo‘lga kiritish, egallash, foyda va yutuq” deya tarjima qilinadi. Qadimda biron bir harakatni o‘ziga odat qilish ma‘nosida ham kasb qilish, kasb etish ma‘nosida kasb atamasi qo‘llanilgan. Kasb-hunarli bo‘lish, kasbni chuqur egallash, kasbini sevish, kasbga bo‘lgan sadoqat, kasbda halollik kabi atamalarga



hayotimiz davomida biz juda ko'p bor duch kelamiz va kundalik turmushda ushbu jarayonlarning faol qatnashchisi bo'lib ishtirok etishimiz barchamizga ma'lum albatta. Chunki inson kasbi orqali hayotini tashkillashtiradi. Kasbi orqali jamiyatning a'zosi bo'lib faoliyat olib boradi. Shu kasb orqasidan hayotini iqtisodiy, ma'naviy holda ta'minlashi barchamizga sir emas albatta. Xo'sh shunday ekan bugungi kunda yoshlar to'g'ri kasb tanlay olishida va kasbni sevib, kasbga qiziqib shu qiziqishlari orqali yurtimiz rivojiga hissa qo'shishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni qay tarzda olishi mumkin.

Turli davrlarda inson uchun har xil kitoblar amaliy tavsiyalar bo'lgan lekin hech biri Qur'oni Karim, Hadislardek insonga shaxsiyatini anglashida hayotida o'z yo'lini topishida ko'makchi bo'la olmagan. Hadislarimiz Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v hayotlari davomida bajargan ishlari, ko'rsatmalari, iqrorlari ko'rsatilgan bizgacha yetib kelgan rivoyatlardir. Hadislar hayotimiz davomida biz insonlarga dasturulamal bo'lishi har bir insonni yaxshilikka chorlashi hattoki hozirgi globallashuv jarayonida ham o'zligini anglash uchun har bir shaxs oldidagi o'rganishi zarur bo'lgan ilm bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Insonning hayotda yaxshi yashashi har taraflama komil inson bo'lishida, o'zligini anglay olishi, bor iqtidorini namoyon etishi hamda eng muhimi to'g'ri kasbni tanlay bilishi va shu kasbi orqali jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun kasbini sevishi zarurdir. Shuning uchun yoshlarda kasbga bo'lgan muhabbatni uyg'otish va ularni to'g'ri kasbga yo'naltirish har bir ota-ona, ustoz, murabbiy oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Kasbga bo'lgan muhabbat kasbni hayotimizdagi ahamiyati, juda ham beqiyos shu bois Qur'oni Karimda va Hadis sharifda har bir inson kasb-u korli bo'lishi, burchi vazifasi sifatida belgilab qo'yilganligi kasbning nechog'lik ahamiyatga ega ekanligi muqaddas manbalarimizdan bizgacha yetib kelgan.

Hadislarimizni bizga yetkazishda ajdodlarimizning ham o'rni beqiyosligi barchamizga ma'lum albatta. Muhammad Hakim Termiziy kasb-hunarga oid hadislarni jamlab "Kasb-tirikchilik bayoni" asarida qisqa va batafsil bayon qilgan ekan. Olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan va mafkura darajasiga tenglashadigan shioriy g'oyani o'rtaga qo'yadi. Tirikchilik talabi insonlar uchun rahmatdir. Bu g'oya orqali Termiziy sufiylik namoyondalaridan farqli o'laroq kasbni tark qilish borasidagi ta'limotlarni rad etdi va ularning ma'nosi boshqa ekanligini bayon qiladi.

Chunki qadimda sufiylik namoyondalari orasida kasb qilishga oid g'aliz fikrlar bayon qilingan ular kasb tavakkulga zid kelishi va rizq Allohdan ekanligi haqidagi fikrlarni isbotlashga harakat qilganlar Albatta Termiziy bu boradagi fikrlarni aniqlashtirib ushbu yuqoridagi hadisni namuna sifatida keltirdilar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib fikr yuritsak inson uchun kasb va uni egallash masalasi har qaysi davrda zarur va muhokamalarga boy bo‘lgan mavzu hisoblangan. Termiziy isbotlagan g‘oyaning tub mohiyatini ham hadislarimiz orqali ko‘rishimiz mumkin. Fikrlar isboti o‘laroq hadislarda ham bu narsa yaqqol aksini topgan. “Kim qo‘l mehnati va kasb-hunari sabab horib-charchab (kunni) kechlatsa, gunohlari, mag‘firat qilingan holda kech kirgizibdi” ushbu hadisdan ko‘rinib turibdiki, insonning halol kasbi albatta savoblariga ham sababchi bo‘lishi mumkin. Barchamizga ma‘lumki savoblar insonni yanada ulug‘likka va komillikka erishishiga sababchi bo‘ladi albatta. Zamondoshlari tomonidan “Islom hujjati, tinchlik diyori – jannatga borar yo‘l sarboni, sochilib ketgan ilmlarni jamlovchi, naql va fahm sohibi ” deya ta‘riflangan: Imom Abu Homid G‘azzoliy ko‘plab hadislariga sharh berganlar va haloldan kasb etish zaruratini ham alohida ta‘kidlaganlar.

Biz Payg‘ambarlarimiz tarixiga nazar soladigan bo‘lsak ularni har biri kasb bilan shug‘ullanganini va shu orqali ro‘zg‘or tebratganiga guvoh bo‘lamiz. Misol keltirib bashariyat tarixidagi birinchi inson Odam (alayhissalom)ning ham yerga tushirilganda unga birinchi vazifa qilib Yaratgan zot Alloh Taolo rizqini yerdan topish uchun kasb qilishga buyurilgan. Hadisi shariflardan bizga kelgan ma‘lumotlarda Payg‘ambarimiz (Abu Hurayradan rivoyat qilingan hadis bu masalani yanada oydinlashtiradi nazarimda: “Alloh biror bir nabiy yubormaganki, illo u qo‘y boqqan”. U zotning sahobalari deyishdi: Siz hammi?” Ha. Makka ahlining qo‘ylarini bir necha qiyrot evaziga boqardim.

Shu mazmundagi yana bir hadis namunasiga e‘tiborimizni qaratsak: U zot as‘hobalari bilan suhbatlashi o‘tirganida huzurida o‘tirgan bir kishiga dedi: “Menga yaqinroq kel”. U kishi u zotga dedi: Alloh seni saqlasin. Allohga qasamki, men ana ular savol so‘raganday savol berishni eplayolmayman. U zot esa dedilar: “Menga yaqinroq kel. Senga Allohning kitobida zikr qilingan Anbiyolar haqida aytib beraman. Odam haqida, u zot dehqon edilar. Nuh haqida u zot duradgor edilar. Idris haqida u zot tikuvchi edilar. Dovud haqida u zot sovut yasovchi edilar. Muso haqida u zot cho‘pon edilar. Ibrohim haqida u zot ekin-tekin bilan shug‘ullanuvchi edilar. Solih haqida u zot tojir edilar. Sulaymon haqida zot Alloh unga mulk bergan zot edilar ” deb so‘zlarida davom etganlar va Odam alayhissalomning ayollari Havo onamizning ham ip yigirishni kasb qilganligini muqaddas manbalarimiz orqali bizga yetib kelgan. Payg‘ambarlarimiz tarixidan ham ko‘rinib turibdiki, inson uchun kasb-hunar egallashning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin.

Yaxshi kasb egasi bo‘lish, kasbga qiziqish uchun hadislarimizda barchamiz uchun ko‘plab o‘rinlarda kelgan hadislarimizdan namunalar bizga kasbga



qiziqish va uni to'g'ri ya'ni qiziqishlarimiz orqali tanlashimiz juda zarurligini ko'rsatib beradi. Barchamizga ayon inson shu kasbi orqali hayotda o'z o'rnini topadi. O'ziga maqsadlar qo'yadi. Maqsadlari mahsulini ko'radi. hammamizga ma'lumki, o'zi qiziqqan kasbni tanlash kasbiy muvaffaqiyatning asosidir. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v dan yetib kelgan yana bir hadisimizda "Kasblarning eng yaxshisi ishchi qo'li bilan kasb qilinib halol mehnat bilan bo'lganidir" deyilishi kasbda halollikka ahamiyat berish kerakligini, halollik kasbning asosi ekanligini bilib olishimiz mumkin. Yana bir hadisimiz borki, bu so'zlar har bir musulmonning hayotida kasbning o'rnini ko'rsatib qo'ygandek go'yo: "Halol kasb farzdan keyingi farzdir" ushbu hadis har bir inson ayniqsa yoshlarimiz uchun hayotga dasturulamal bo'lib xizmat qiladi albatta yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, kasb har qachon inson uchun zarur va kerakli bo'lib kelgan unga qaysi davrdan, qanday nuqtayi nazardan, qay nigoh bilan boqmaq, qaysi dunyoqarash bilan : xoh u diniy bo'lsin, xoh u dunyoviy bo'lsin. Inson uchun kasbning o'rni va ahamiyati beqiyosligini ko'rsatib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yoshlarimizning katta hayot ostonasidagi vazifasi, burchi bu to'g'ri kasb tanlashi va eng muhimi kasbini sevishidir. Ma'lum bir kasb bilan shug'ullangan va kasbga muhabbat qo'ygan inson kasbi orqali jamiyatga foydali shaxs sifatida yetishadi albatta. Zero Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v aytganlaridek "Ilm talab qilish farz bo'lgani kabi (halol) kasb qilish ham har bir musulmon uchun farzdir".

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, №PF-5106, 5 iyul 2017 yil
2. Muhammad Hakim Termiziy, Muhammad Hakim Termiziy Risolalari
3. "Movounnahr" 2018. "Kasb-tirikchilik bayoni" (Bayonul kasb).
4. Jo'rabek Cho'tmatov.
5. 2002 hadis (Hadisi shariflarda odob-axloq zikri) Sayyid Ahmad Hoshimiy. "Munir" nashriyoti 2022.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada hadislarining yoshlarni kasb tanlashdagi o'rnini hamda insonning shaxsiyatini anglashdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается роль хадисов в выборе профессии для молодежи, а также их значение для понимания личности человека.

SUMMARY

This article examines the role of hadith in choosing a profession for young people, as well as their importance for understanding a person's personality.